

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

“Kiritdi”

**O‘zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori**

K.T.Urinbayev

« 20 » 06 2024-yil

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

« 20 » 06 2024-yil

“Tasdiqlayman”

**O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**

« 20 » 06 2024-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211400 – Vokal san‘ati (an‘anaviy xonandalik)
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

Toshkent – 2024-yil

Dastur Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti Kengashining 2024-yil 31-maydagi 10-sonli yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
“Maqom xonandaligi” kafedrası
professori, “O‘zbekiston xalq artisti,
O‘zbekiston qahramoni M.Yo‘lchiyeva

O‘zbek milliy maqom san’ati markazi
direktor o‘rinbosari, San’atshunoslik
fanlari nomzodi, professor S.Begmatov.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
“Maqom xonandaligi” kafedrası mudiri,
dotsent, N.Pirmatova

Taqrizchilar:

O‘zbek milliy maqom san’ati markazi
“Ustoz- shogirt maktabi” bo‘limi mudiri,
O‘zbekiston xalq xofizi I.Vohobov

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrası
professori S.Azizboyev

Kirish

60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1-ijodiy imtihon "Maqom yakka xonandaligi" hamda 2-ijodiy imtihon "Solfedjio va musiqa adabiyoti" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalari hamda nazariy bilimlarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar quyidagi tartib bo'yicha o'tkaziladi:

- 1-ijodiy imtihon "Maqom yakka xonandaligi" fani (amaliy)
- 2-ijodiy imtihon "Solfedjio va musiqa adabiyoti" fani
 - a) "Solfedjio" (amaliy)
 - b) "Musiqa adabiyoti" (og'zaki)

1. "Maqom yakka xonandaligi" fanidan ijodiy imtihon maqsadi va vazifalari

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar umumiy tayyorgarlik darajasi, ijodiy qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi hisobga olingan holda me'yoriy dastur asosida baholanadi.

"Maqom yakka xonandaligi" fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega ekanliklari va o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iborat. Alohida e'tibor professional darajali ijroni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. "Maqom yakka xonandaligi" fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati, tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga turli musiqiy janrlar yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida kirish imtihonlari talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

Abituriyent ijodiy imtihon komissiyasiga quyida ko'rsatilgan shakldagi asarlarni taqdim qilishi lozim:

- 1 ta turkum shakldagi maqom asari;
- 1 ta xalq ashulasi;
- 1 ta bastakorlar ijodiga mansub asar;

O'qishga kiruvchiga mazkur shakldagi ijro dasturini namoyish etishi uchun 30 daqiqagacha bo'lgan vaqt ajratiladi.

Ijro dasturi

60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlardan tayyorlangan ijro dasturlarini yakka tarzda, jo'rnavoz jo'rligida yoki o'zi cholg'uda jo'r bo'lib yoddan ijro etib berishlari talab etiladi.

Abituriyent asarning musiqiy matnini xatosiz, sur'atini nota matnida ko'rsatilganidek, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ifoda etgan holda talqin etib berishi zarur. Asarni ijro etishda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, ovoz diapozoni, tembri va uni to'g'ri boshqarish hamda ijro sifati asosiy ahamiyatga ega.

Taxminiy ijro dasturi

1. Shashmaqom tarkibidagi turkum asarlar yoki Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari yoki Xorazm maqomlaridan biri. Masalan: Saraxbor, Talqin yoki Nasr, Savt yoki Mo'g'ulcha, Dugoh Husayniy, Bayot, Chorgoh turkumlaridan biri va h.k.

2. O'zbek xalq ashulalaridan biri. Masalan: "Ko'cha bog'i I-II", "Girya I-II", Fig'on I-II", "Adoi va Asiriy", "Miskin", "Suvora", "Savti suvora", "Munojot", "Tanovor" va h.k.

3. Bastakorlik ijodiyotidan. Masalan: "Naylayin", "Koshki", "Ey sabo", "Dog'man", "Ko'rsatmagay", "Topmadim", "Aylagach" "Otmagay tong" va shu kabi

BAHOLASH MEZONI

"Maqom yakka xonandaligi" fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

<u>№</u>	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar g'azal matnining to'g'ri va yoddan ijro etilishi	10,0 ballgacha
2.	Ovoz diapozoni, tembri va uni to'g'ri boshqarish	10,0 ballgacha
3.	Artikulyatsiya (talaffus) talablarining bajarilishi	10,0 ballgacha
4.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanilishi (asar matniga munosabati, badiy-estetik qiymatini saqlash)	10,0 ballgacha
5.	Nafasni to'g'ri iqtisod qilish va qo'llash	10,0 ballgacha
6.	Intonatsiya sofligi (parda sofligi va h.k.)	10,0 ballgacha
7.	Asar ijro talqini (shaxsiy ijro uslubiga xos maktablar misolidan)ni ochib berish	10,0 ballgacha
8.	Asarning original sur'atni saqlagan holda ijro etish	10,0 ballgacha
9.	Sahna madaniyati (libos, ozini munosib tutishi, gavdani tik turishi va h.k.)	7,0 ballgacha
10.	Asarni cholg'u sozi chalib kuylash	6,0 ballgacha
Jami:		93.0 ball

"Maqom yakka xonandaligi" fanidan to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – **93.0 ball.**

2. “Solfedjio va musiqa adabiyoti”

a) “Solfedjio”

“Solfedjio” fanidan abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio” fanidan o‘rta maxsus ta’lim o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligi ya’ni notaga qarab kuylay olishi, musiqiy-nazariy va amaliy ko‘nikmalarni belgilangan talablarga muvofiq namoyish eta olishi talab etiladi.

Solfedjio fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. Notaga qarab bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash.
2. Intervallar hamda akkordlarni eshitib aniqlash.
3. Maqom jinslari (lad)ni, eshitib doyrada usul chalib kuylash.

BAHOLASH MEZONI

“Solfedjio” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Notaga qarab bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to‘g‘ri aniqlash.	5 ballgacha;
b)	Sof kuylash.	5 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish.	5 ballgacha;
d)	Xalq ladlarida transpozitsiya qilib kuylash.	5 ballgacha;
2.	Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.	5 ballgacha;
3.	Maqom jinslari (lad)ni, eshitib doyrada usul chalib kuylash.	8 ballgacha
Jami:		33,0 ball.

“Solfedjio” fanidan to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **33.0 ball.**

b)“Musiqqa adabiyoti”

Kollokvium tarzidagi suhbatda abituriyentning “Musiqqa adabiyoti” fanidan jahon, rus, o‘zbek musiqasi tarixiga hamda bastakorlik ijodiyotiga oid bilim darajasi baholanadi. Og‘zaki ravishda savollarga beriladigan javoblarda mavzuning mazmun-mohiyati ochib berilishi talab etiladi.

BAHOLASH MEZONI

“Musiqqa adabiyoti” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan berilgan og‘zaki javoblar quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	O‘zbek musiqqa adabiyoti hamda bastakorlik ijodiyotidan savollarga javob	15 ballgacha;

2.	Rus musiqa adabiyotidan savollarga javob	7,5 ballgacha;
3.	Chet el musiqa adabiyotidan savollarga javob	7,5 ballgacha;
Jami:		30,0 ball.

“Musiqqa adabiyoti” bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **30,0 ball.**

Mazkur ta’lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo‘yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Apellatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining appelyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin va arizalar o‘natilgan tartibda ko‘rib chiqiladi.

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONIGA

TAQRIZ

60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishining fani uchun ishlab chiqilgan Baholash mezoni abituriyentlarning ijro dasturi asosida egallagan amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha abituriyentlar Shashmaqom, Farg‘ona – Toshkent maqom yo‘llari hamda Xorazm maqom ashula yo‘llaridan turkum asar, milliy mumtoz musiqa va bastakorlar asarlaridan namunalar ijro etish borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar ushbu tasdiqlangan mezon asosida baholanishi ko‘zda tutilgan.

Ushbu mezonga malaka talablari hamda Namunaviy fan dasturlarini asos qilingan. Mezon kirish qismi, fanning ijodiy imtihon maqsad va vazifalari, abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar, ijro dasturi va baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlardan iborat. Mazkur baholash mezoni Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihon topshiruvchi abituriyentlar uchun har tomonlama qulay shaklda ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib ijodiy 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezoni abituriyentlarni baholashda asos sifatida qo‘llanilishini ma’qullayman.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI
“Maqom cholg‘u ijrochiligi”
kafedrasi professori



S.Azizboyev